

Bilim olish huquqi va ilmiy ijod erkinligi**Nigora Teshaboyeva,**

Farg'ona davlat universiteti

Tarix fakulteti Ijtimoiy ish yo'nalishi

2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ta'lim (bilim) olish huquqi Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasida va Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyada e'lon qilingan. Bilim olish huquqi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan va asosiy qonunimiz har kimga bepul umumiy ta'lim olish huquqini kafolatlaydi. 1997-yili O'zbekistonda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ishlab chiqildi va qabul qilindi. Ayni o'sha shu yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni ushbu dasturning amalga oshirilishiga imkoniyat yaratib beradi, negaki savodxon, bilimli, yuqori malakali mutaxassisiz davlatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohani rivojlantirish mumkin emas.

Kalit so'zlar: konstitutsiya, tarix, qonun, konvensiya, inson, o'qituvchi, tibbiyot.

Аннотация: Право на образование (образование) провозглашено во Всемирной декларации прав человека и Конвенции о правах ребенка. Право на образование закреплено в Конституции Республики Узбекистан, наш основной закон гарантирует каждому право на бесплатное общее образование. В 1997 году в Узбекистане была разработана и принята Национальная программа подготовки кадров. Принятый в том же году Закон Республики Узбекистан "Об образовании" дает возможность реализации этой программы, так как без грамотных, образованных, высококвалифицированных специалистов развитие социально-экономической сферы в нашем государстве невозможно.

Ключевые слова: Конституция, история, закон, конвенция, человек, учитель, медицина.

Annotation: The right to education is proclaimed in the Universal Declaration of Human Rights and the Convention on the Rights of the Child. The right to education is enshrined in the Constitution of the Republic of Uzbekistan, our basic law guarantees everyone the right to free general education. In 1997, a national training program was developed and adopted in Uzbekistan.

The Law of the Republic of Uzbekistan “On Education” adopted in the same year makes it possible to implement this program, since without literate, educated, highly qualified specialists, the development of the socio-economic sphere in our state is impossible.

Keywords: Constitution, history, law, convention, person, teacher, medicine

Sharqda barcha zamonlarda ma’lumotli kishilarga hurmat-izzatda bo’lishgan. Ularni domulla-o’qituvchi, usto-ustoz kabi nomlar bilan atashgan. Bu narsa tasodifiy emas albatta, chunki savodxon, bilimli kishi hayotda ancha faol. U boshqa fuqarolar va davlatning harakatlariga ko’proq ta’sir o’tkazish imkoniyatiga egadir. Yaxshi ishga joylashish ham qaysidir ma’noda ma’lumotga bog’liq bo’ladi. Inson bu - yer yuzidagi oliy qadriyatdir. Kishi tug’ilganidanoq yashash huquqi va boshqa huquqlarga ega bo’ladi. O’zbekiston Respublikasi fuqarolarining asosiy huquqlari:

- yashash huquqi;
- erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi;
- qadr-qimmat va sha’ni himoyasi huquqi;
- turar joy daxlsizligi huquqi;
- vijdon va diniy e’tiqod erkinligi huquqi;
- jamiyat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqi;
- mulkdor bo’lish huquqi;
- ta’lim olish huquqi;
- malakali tibbiy yordamdan foydalanish huquqi;
- madaniy yutuqlardan foydalanish huquqi.

Kishilar ana shu huquqlar har kimga oid bo’lish kerak degan xulosaga birdaniga kelishmagan. Uzoq asrlar davomida insoniyatning qoraqosh farzandlari(insoniyat)-barcha kishilar teng va baxtli bo’ladigan davlat yaratish haqida orzu qilganlar. O’rta Osiyoning buyuk faylasufi Abu Nasr al-Farobiy IX asrda “saodat shahri”,ya’ni insonning barcha asosiy huquqlariga rioya etuvchi davlat tuzilishi haqida risola bitgan edi. Ammo turli mamlakatlar hukumatlari har xil sabablarga ko’ra o’z xalqiga buni kafolatlay olmagan uchun “Fozil odamlar shahri”ni bunyod etishiga hech kim muyassar bo’la olmagan. Ustiga-ustak, mamlakatlar ko’pincha bir-birlari bilan o’zaro xunrezlik urushlarini boshlab yuborar edilar,urush esa hammavaqt insonni asosiy huquqlaridan mahrum etgan.



Ikkinchi jahon urushidan so'ng, yangi urushlar boshlanishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida jahon xalqlari Birlashkan Millatlar Tashkiloti(BMT)ga birlashdilar 1948-yili 10-dekabrda BMT Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasini qabul qildi.Unda jahon tarixida ilk marotaba insonning asosiy huquq va erkinliklari shaklantirilib ta'riflab berilgan edi. BMTga a'zo bo'lgan barcha mamlakatlar ularga rioya etishi lozim.1992-yil 2-martda O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining asosiy qoidalari kiritilgan. Bu esa davlatimiz ana shu hujjatda e'lon qilingan inson huquqlariga rioya etilishini ta'minlash majburiyatini zimmasiga olgan deganidir.Yuqorida BMT tashkilotlari haqida so'z borganida "Bola huquqlar to'g'risida"gi xalqaro Konvensiyaga alohida to'xtalamiz. BMT tomonidan 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan.1990-yil 2-sentabrda kuchga kirgan. 1959-yilgi Bola huquqlari Deklaratsiyasiga asoslanadi. Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaning asosiy maqsadi bolalar manfaatini imkon qadar himoya qilishdan iborat. Konvensiyaga asosan agar milliy qonunlarda balog'at yoshi birmuncha erta belgilanmagan bo'lsa, 18 yoshga to'lmagan har qanday shaxs bola hisoblanadi. Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya fuqarolik,siyosiy, madaniy,iqtisodiy,ijtimoiy va madaniy huquqlar yig'indisidan iborat. Konvensiyaning eng muhim tamoyillaridan biri bolalarni kamsitilishiga yo'l qo'ymaslikka aytiladi. Ma'lumot o'rnida hozirgi kunda Konvensiyani 145 ta davlat imzolagan. Nafaqat xalqaro qonunlarda,balki mamlakatimizda ham farzandlarimizni ta'lim olishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan.Xususan, uzluksiz ta'lim tizimi yaratilgan. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun ta'lim 4 bosqichdan iborat ekanligini belgilaydi.

- 1.Maktabgacha ta'lim-bolalar bog'chasi;
- 2.Umumiy o'rta ta'lim-9 yillik maktab;
- 3.O'rta maxsus professional ta'lim-kasb hunar maktablari yoki akademik litsey;
- 4.Oliy ta'lim-institut yoki universitet;

O'qitish davlat ta'lim standartlari asosida amalga oshiriladi. Ixtisoslashtirilgan maktablar ham mavjud bo'lib ularga tanlov asosida qabul qilinadi.Matab ixtisosi fanlarni yaxshiroq bilganlar unda o'qishka haqli bo'ladi. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunga muvofiq oilaviy ta'lim kabi ta'lim turiga yo'l qo'yiladi.O'qitishning bunday shakilda ta'lim oladilar,o'quv yili imtixonlarini esa maktabda topshiradilar. Nodavlat umumta'lim muassasalarida o'qitish pullikdir. To'lov maktab ota-onalar



qo'mitasi bilan shartlashuviga ko'ra belgilanadi va o'rganiladigan fanlar va maktab tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar miqdoriga bog'liq bo'ladi. Qonunga ko'ra bolalarning ota-onalari ularning bilimi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Ijodiy erkinligi va uni ro'yobga chiqarish uchun sharoitlar yaratish. Davlatimizning asosiy qonuni har kimga ijod erkinligi huquqlarini, ya'ni ixtirochilik ratsionalizatorlik faoliyati bilan shug'ullanish ilmiy va texnikaviy ijodiyot erkinligi huquqini mustahkamlab qo'ygan. Ana shu maqsadda bolalar ijodiyoti uylari, yoshlar markazlari tashkil etilib, ulardan qiziqishlar bo'yicha turli-tuman kurslar va to'garaklar ochilgan. Iste'dodli o'quvchilarni, talabalarni qo'llab-quvvatlash va kamol toptirish bo'yicha davlat chora tadbirlari ham bilim olish huquqini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Davlat yoshlar ijodiyoti erkinligini kafolatlaydi. Bu esa davlat hokimiyati organlari huquqini ro'yobga chiqarish bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarning ijodiy faoliyatiga aralashmasligini anglatadi. Yer yuzidagi, har bir inson nimaga intiladi? Balki, ko'ngilmizga yoqqan ish bilan mashg'ul bo'lish, o'zimiz istagan yashash sharoitiga ega bo'lishdir? Hayotimizga va biz egalik qiluvchi narsalarga hech nima tahdid solmasligidir? Yoki boshqa kishilar bilan ixtilof yuzaga kelgan taqdirda nizoni hal qilishdir.

Hozirda yaxshi yashash yuqorida sanab o'tilganlarning hammasidir. Chunki, to'laqonli hayotimiz shaxsiy baxt-soatimiz, huquqlarimizga rioya etilishi va obro'yimiz hurmat qilinishi zamini ham shundadir. Bu huquqlar har birimizda bo'lishi lozim. Shunga muvofiq har birimizning harakat erkinligimiz boshqa biro dam erkinligi boshlanadigan manzil-makonga qadar davom etadi. Demak, biz o'z huquqlarimizdan boshqa kishilarga ziyon yetkazmaydigan tarzda foydalanishimiz kerak. O'z huquqlariga rioya etadigan va o'zgalarning huquqlariga putur yetkazmaydigan kishilar qanchalik ko'p bo'lsa, hammaning hayoti shunchalik soyishta va farovon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ijtimoiy ishga kirish. (2021-yil. Ganiyev, Qayumov)
2. Sotsiologiya. (E.Giddens. 2009 yil)
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi amaldagi yangi tahriri. 2023 yil.
4. Lex.uz sayti materiallari.